

PAPER

INGLIZ TILINI O'QITISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

N. U. Kilichova^{1,*}

¹Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

* kilichova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish orqali ulardagi tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari va ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi zamonaviy metodlar haqida fikr bayon etilgan.

Key words: tanqidiy fikrlash, sinkveyn metodi, intellektual qobiliyat, assotsiatsiya, FSMU.

Kirish

Bugungi kunda dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi, mahsulati orqali mustaqil, tanqidiy fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi barkamol avlodni tarbiyalash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarni har tomonlama intellektual jihatdan rivojlantirish, ularning til bilish qobiliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 2-fevraldagi "Xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga bir vaqtning o'zida ham o'qish, ham pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi moslashuvchan dars jadvalini joriy qilish " PQ-53-son qarori bilan belgilab berilgan [1.1-b].

Bundan tashqari Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi qarori qabul qilingan. Hozirgi kunda ushbu qarorlarning ijrosini ta'minlash maqsadida ingliz tili o'qituvchilar tomonidan bir qancha innovatsion texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etilib, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish nazarda tutilmoqda. Chunki,

ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni til o'rganish barobarida kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan tanqidiy tafakkur orqali oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Aynan shu jarayonda jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarning salbiy ta'sirlariga qarshi immunitetga ega tanqidiy fikrlovchi yoshlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash bu-XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Ingliz olimi Ennisning fikriga ko'ra, [2] "tanqidiy fikrlash — bu e'tiqod va harakatni boshqaradigan kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki assotsiatsiya orqali to'plangan yoki hosil ma'lumotlarni konsepsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholashning intellektual va intizomli jarayoni. Ennisning fikricha, tanqidiy fikrlash diqqat va miya faoliyatini talab qiladi. Agar tanqidiy fikrlash ta'lim sohasiga kiritilsa, bu usul o'quvchilarni tanqidiy tafakkurga olib boradi.

Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qancha zamonaviy metodlardan mavzuga moslab qo'llash imkoniyatlari mavjud. Masalan: Sinkveyn metodi -fransuz tilida "besh qator" ma'nosini bildiruvchi pedagogik strategiya. Sinkveyn metodi orqali ma'lumotlarni umumlashtirishga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea,

mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi tilidan turli variantlarda ifodalanadi. Sinkveytn tuzish-murakkab fikr, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan ko'nikmadir. Sinkveytn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi va ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashini shakllantirishga ko'maklashadi.

Masalan: 4-sinf ingliz tili kitobining 3- bo'lim "At work" mavzusida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi sinkveytn metodini qo'llasa bo'ladi. What is work?

Job

Regular activity

People's main income

Important part of life

A key of satisfying professional life

O'qituvchi o'tilgan mavzuning qisqacha va asosiy bayonini keltirib, o'quvchilar bilan savol-javob qilib, mustahkamlab olgandan keyin ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun "FSMU" innovatsion metodidan foydalanish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Masalan: Where does water come from? [3-66]

FIKR- fikringizni bayon eting.	The ice is melted by the Sun
SABAB- fikringizga sabab ko'rsating	It is a physical phenomenon
MISOL- fikringizni misollar bilan to'ldiring	Atlantic ice cap
UMUMLASHTIRISH- fikringizni umumlashtiring.	Melting point is limited

Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlash mavzuning ma'nosini tushunishga yo'naltirilgan, o'quvchilarning yangi g'oyaga, xulosaga kelishini ta'minlaydigan fikrlash turi sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni o'quvchilarga turli rasmlarni ko'rsatib narsalar va hodisa-larni analiz qilib, asosli xulosalar chiqarib hikoya tuzish maqsadida ingliz tilida tasvirlash orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2024 yildagi PQ-53 son qarori .
2. Ennis, Robert H. (2015), „Critical Thinking“, The Palgrave Handbook of Critical Thinking in Higher Education.
3. Susannah Reed with Kay Bentley Guess what! 4. Student's book 110 page. 2019
4. Hasanboyev J.Y "Uzluksiz ta'lim tizimida tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini aniqlash-T Fan 2005.